



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-78-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

**Aholi farovonligini ta'minlash va mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishda “Mahalla yettiligi”ning mas’uliyatini oshirish, faoliyati va rolini kuchaytirish bo‘yicha Oyjon mahallasida 2025-yil II choragida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-35-V-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishslashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni ijrosini ta’minlash tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida mahallabay ishslashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash maqsadida shuningdek, Oyjon mahalla yettiligi hisobotini tanqidiy muhokama qilib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq o‘n ikkinchi sessiyasi

### QAROR QILADI:

1. Aholi farovonligini ta’minlash va mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishda “Mahalla yettiligi”ning mas’uliyatini oshirish, faoliyati va rolini kuchaytirish bo‘yicha Oyjon mahallasida 2025-yil II choragida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risidagi Oyjon mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Sh.Adilovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi birinchi o‘rnbosari (M.Zavqiyev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov). O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (G’.To‘chiyev)ga:

-aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish;

-mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish;

-mahalla yettiligining ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar to‘g‘risidagi kollegial qarorlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

-“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida belgilangan vazifalar, kambag‘allikni qisqartirish tadbirlarni amalga oshirish;

-mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar bandligini ta’minlash;

- aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlikni rivojlantirish choralarini amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o‘rnbosarlari (O.Shirinov, S.Djumayeva)ga:

-milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlar o‘rtasida reproduktiv salomatlik qoidalari va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish:

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga belgilangan mezonlar asosida moddiy yordam, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o‘zini o‘zi band qilish choralarini ko‘rib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov)ga:

-aholi, ayniqsa, yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy cha umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish;

-mahallalarda kriminogen vaziyat barqarorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

5. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo‘rayev) ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatishni tashkil qilish shuningdek, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar hamda mazkur xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan huquqlari bo‘yicha targ‘ibot ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun gazetasi tahririysi (O‘.Usmonov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) tumanda mahalla yettiligi tomonidan olib borilyotgan ishlar samaradorligi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiya raislari hamda tuman hokimi o‘rnbosarlari (M.Zavqiyev, O.Shirinov, M.Rasulov, B.Sulaymonov, S.Djumayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH